



## “MA‘RIFATLI JAMIYAT-UCHINCHI RENESANS POYDEVORI”

---

*Buxoro davlat pedagogika instituti  
Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi  
Jumakulov Najmiddin Ibroimovich  
Buxoro davlat universiteti magistranti  
Ibroimov Ruslan Najmiddin o‘g‘li*

**Annotatsiya:** O‘zbekiston Respublikasi hududida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqli qilib belgilab, kafolatlanganligi, ta’lim tizimidagi yangiliklar barchasi yosh avlodning shakllanishi va ilm olishi, kelajakda yosh avlod mahoratli kasb egasi bo‘lib yetishishi uchun muhim islohotlar o‘tkazilayotganligi, jumladan jahon arenalarida, fan olimpiadalarida yurtimiz bayrog‘ini yuqori cho‘qqilarga ko‘tarayotgan yoshlarimiz misolida ko‘rishimiz mumkinligi haqida so‘z yutiladi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston, yoshlar, taraqqiyot, demokratiya, qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklari, ochiqlik va oshkoralik, so‘z erkinligi, jamoatchilik nazorati.

Bugun O'zbekiston o'z mustaqil taraqqiyotining sifat jihatdan yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Bu yo'lda u jahonning ko'plab mamlakatlari va yirik xalqaro tashkilotlari bilan turli sohalarda samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Xususan, xorijiy davlatlar bilan do'stona hamda o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish borasida muhim natijalarga erishilyapti. Qisqa davr ichida O'zbekiston xalqi mamlakatimizning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashiga asos bo'luvchi ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. SHunga monand ravishda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan boshlangan islohotlar va modernizatsiya jarayoni, jumladan, qo'shni mamlakatlar bilan aloqalarni mustahkamlash bo'yicha siyosatni dunyo hamjamiyati e'tirof etmoqda. Yana bir muhim xususiyati shundaki, unda Yangi O'zbekiston — demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume'tirof etilgan norma va printsiplarga qat'iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do'stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo'lgan davlat ekani alohida qayd qilingan. Bu demokratik o'zgarishlar esa kimlargadir yoqish, maqtanish, turli reytinglarga kirish uchun emas, balki xalqimiz, avvalambor, yosh avlodimizning bugungi hayoti



va ertangi istiqbolini o'ylab, milliy manfaatlarimiz yo'lida amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, “inson huquq va erkinliklari”, “qonun ustuvorligi”, “ochiqlik va oshkoralik”, “so'z erkinligi”, “din va e'tiqod erkinligi”, “jamoatchilik nazorati”, “gender tenglik”, “xususiy mulk daxlsizligi”, “iqtisodiy faoliyat erkinligi” singari fundamental demokratik tushunchalar va hayotiy ko'nikmalar hozirgi vaqtda real voqelikka aylanib borayotgani e'tiborlidir.

Ma'rifat –insonlarning ongi va shuurida bilimni oshirish,ta'lim –tarbiyaga qaratilgan, inson va jamiyat muhim konsept. Ma'rifatli jamiyat tushunchasi esa keng ma'noda har xil sohadagi yangiliklari,tub o'zgarishlar,yangi reformalar bilan talqin qilinadi. Jamiyatning tub o'zgarishi,bunyodkorlik g'oyalari bilan ham hamohangdir. Ha, albatta, inson yaratilib, dunyo dunyo bo'lguncha, inson olamni bilib taniganidan yangilikka, jumladan madaniyatli, ilm-fan sohasidagi katta, ilmga ta'lim –tarbiyaga,ilmiy salohiyatga juda katta e'tibor qaratib kelmoqda...Tarixiy faktlardan shuni bilamizki, Osiyo mintaqasining ilm o'chogi bo'lgan Markaziy Osiyo qadimgi davrdan boshlab ilmga chanqoqligi, ilmiy savodxonligi bilan ajralib turadi.Shak-shubhasiz ajdodlarimiz kimligi biz esa bugungi kunda kim ekanligimizni ilmiy meroslar,madaniy yodgorliklaridan,moddiy ashyolardan juda yaxshi bilamiz.Bizning davrimizgacha bo'lgan davda katta ijod maktabi,tarjiba maktabi yuzaga kelgan.Necha yillardan buyon katta maktablar,.ijod maktablari yuzaga keldi. Uslubiy jihatdan bo'yoqdor qilib ta'kidlaganda,so'zimiz isboti sifatida shuni keltirib o'tish joizki,o'zbek jadidchilik maktabi a'zosi M.Behbudiy ta'kidlaganidek, “Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktabdir” o'z fikrini yuksak ma'nolar bilan ifodalagan. Haqiqatdan ham ilm,tarbiya,ta'lim necha asrlarkim,ulug' ajdodlar ilmni teran o'rganish,ularning ilmiy salohiyatini, ma'naviyatini yuksaltirish insoniyat oldida muhim vazifa bo'lib ekanligini isbotlab kelmoqda...Bugungi kunda ilmiy savodxonlik ta'lim tizimidagi islohotlar,O'zbekiston Respublikasi hududida ta'limga bo'lgan e'tibor judayam yuksak darajada ekanligi,chiqarilayotgan qonunlardan,qarorlardan bilishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi hududida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqli qilib belgilab, kafolatlanadi. Ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.Ta'lim tizimidagi yangiliklar barchasi yosh avlodning shakllanishi va ilm olishi,kelajakda yosh avlod mahoratli kasb egasi bo'lib yetishishi uchun muhim islohotlar o'tkazilayapdi. Jumladan jahon arenalarida ,fan olimpiadalarda yurtimiz bayrog'ini yuqori cho'qqilarga ko'tarayotgan yoshlarimiz misolida ko'rishimiz mumkin.Jahon olimpiadalarda qo'lga kiratayotgan yutuqlarining hammasi



mamlakatimizdagi reformalarning yoshlarga qaratilayotgan e'tibordan nishonadir. O'zbekiston Respublikasining rivojlantirish Harakatlar strategiyasi uning negizida tashkil qilingan "Besh tashabbus – besh imkoniyat" doirasida maktablarda o'tkazilayotgan ma'rifiy tadbirlar shular jumlasindandir... Yosh kitobxon tanlovlari yoshlarni kitobxonlikka qiziqtirish, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, musiqa va san'atga, sportga yohlarni qiziqtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Shu o'rinda shuni aytish lozimki, Hurmatli Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev bir yig'ilishida shunday ta'kidlaganidek: "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta'kidladi. Yoshlarga berilgan imkoniyatlar, ularga yaratilayotgan imkoniyatlar sarhad bilmas, imkon boricha ilm olishga, yangiliklar qilishga yangi g'oyalar bilan yashashga chaqiradi. Haqiqatdan ham Sh.Mirziyoyev prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda .ilmiy va texnikaviy, innovatsion va kreativ yondashuvchan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda... Kadrlar yetishtirish .maktab tizimidagi juz'iy kamchiliklarga e'tibor qaratdi. Ma'lumki, murakkab o'tish yillarida maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy muhit, o'qituvchi kasbining obro'yi, nufuzi pasayib ketgani, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishga yetarli e'tibor berilmagani sohada bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqarganligi haqida ko'p marotaba yig'ilishda alohida takidlab o'tdi. Muammolarni samarali hal etish, kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha mamlakatimizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Ma'rifatli jamiyat-bu haqiqatdan ham ma'rifatli jamiyatdir. O'zbekiston Respublikasi 2021-yil 9-sentabrda "Yangi O'zbekiston ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi amalga oshiriladi. Qaror negizida qancha ishlar amalga oshirilyapti. Stastistik ma'lumotlarga qaraganda shuni alohida ta'kidlash kerakki, Prezidentimiz tamonidan mamlakatimizda xalq ta'limi tizimiga oid 6 ta farmon va qaror, Vazirlar Mahkamasining 21 ta qarori qabul qilinib, bu sohadagi islohotlarning



huquqiy-me'yoriy asoslari mustahkamlandi. Jumladan, Ulug' allomalarimiz – Mirzo Ulug'bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim Yusupov, Is'hoqxon Ibrat, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdiyeva nomlari bilan atalgan ijod maktablari, “Temurbeklar maktabi”, Prezident maktablari, xususiy maktablar singari yangi va zamonaviy namunadagi ta'lim dargohlari tashkil etilgani yurtimiz farzandlari uchun ta'lim-tarbiya olish borasida yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. Ta'lim-tarbiya ishlarini samarali olib borishda erkak o'qituvchilarning alohida o'rni va ta'siri borligi hisobga olinib, ko'rilgan aniq chora-tadbirlar natijasida xalq ta'limi tizimiga 12 ming 871 nafar erkak o'qituvchi qaytdi. Pedagog xodimlar mehnatini rag'batlantirish bo'yicha katta ishlar qilinmoqda. Oxirgi 3 yilda o'qituvchilarning ish haqi o'rtacha 2,5 barobar oshirildi. Uzoq tumanlarga borib ishlayotgan pedagog kadrlar mehnatini rag'batlantirish bo'yicha aniq mezonlar belgilandi. Ularga 50 foizgacha qo'shimcha oylik ustamalar to'lanmoqda. Bu olis hududlarda yetishmayotgan mingdan ziyod o'qituvchini jalb etish imkonini berdi. Nafaqa yoshida faoliyatini davom ettirayotgan o'qituvchilarga pensiyasi to'liq miqdorda berilmoqda. Ota-onalar, jamoatchilikning istaklari inobatga olinib, yurtimizda 11 yillik maktab ta'limi tizimi tiklandi. So'nggi yillarda yurtimizda 157 ta umumta'lim maktabi yangidan qurildi. Ta'lim tizimidagi bu islohotlar albatta, jamiyat rivojlanishi uchun muhim islohotlarning muhim qadamidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Sh.Mirziyoyev- Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent -"O'zbekiston", 2017 ,4-bet
2. Sh.Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi
3. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. T.: “Ma'naviyat” 1996, 121-bet.
4. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Asarlar to'plami 7-jild T., “O'zbekiston”, 1999, 304-bet.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent “Ma'naviyat”, 2008, 16, 21-betlar